

KUTUBXONASHUNOSLIK KASBIY FAOLIYATIGA TALABALARNI TAYYORLASH

Ne'matova Aziza Oybek qizi

Termiz davlat universiteti, Pedagogika va ijtimoiy ish fakulteti
kutubxona-axborot faoliyati talabasi.

Suvanov Husniddin Norqulovich

ilmiy rahbari: Termiz davlat universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

Tel: +998-97-786-88-05 E-mail: hsuvanov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287687>

Annotatsiya. Kutubxonashunoslik fan sifatida shakllangani, bakalavr talabalar bilishi kerak amaliy va tajriba mashg'ulotlari orqali malakalarida maqsadi, vazifasi, tamoyillari, qonuniyatlari, metodologiyasini, metodlarini, kutubxonalar tipologiyasini va boshqa fanlar bilan bog'liqligi yoritib berildi. Tarmoqlarga ajratish kutubxonaning sifatli ishlashini, tizimlarga ajratish kitobxonlarda xizmat yaxshilanishini ta'minlab berishiga ko'rsatmalar berildi.

Kalit so'zlar: Kutubxona, Kutubxonashunoslik, metod, axborot tizimi.

PREPARING STUDENTS FOR A PROFESSIONAL LIBRARIANSHIP

Abstract. The formation of library science as a discipline, the skills, goals, methods, exercises, methodology, library typology and connections with other disciplines were highlighted through practical and experimental training that undergraduate students should know. It is shown that the library provides quality production, systems for processing books, and service improvements in networks.

Keywords: Library, Library Science, method, information system.

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. Особое внимание было уделено формированию библиотековедения как дисциплины, навыкам, которыми должны обладать студенты бакалавриата в ходе практической и экспериментальной подготовки, ее целям, методам, упражнениям, методике, типологии библиотек, ее связи с другими дисциплинами. Показано, что сети обеспечивают качество продукции библиотеки, а системы улучшают обслуживание при обработке книг.

Ключевые слова: Библиотека, библиотековедение, метод, информационная система.

Kutubxonashunoslik fan sifatida shakllanib ham bo'lgan. Kutubxonashunoslikning predmeti sifatida albatta, kutubxona deb qarashimiz to'g'ridir. Kutubxonani avvalambor tarmoqlari va tizimlariga ajratib olish kerak. Tarmoqlarga ajratish kutubxonaning sifatli ishlashini, tizimlarga ajratish kitobxonlarga xizmat yaxshilanishini ta'minlab beradi.

Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning zaruriy funksiyalari Axborot kutubxona markazi hamda Axborot resurs markazi va kutubxonalar faoliyati. Ularni boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi masalalari haqida zaruriy bilimlar berish hamda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Kutubxonashunoslik fanining asosiy maqsadi talabalarga kutubxonada olib borilayotgan kutubxonashunoslik, shu bilan birga axborot-kutubxona faoliyati sohasi uchun asosiy ilmiy-nazariy masalalarni, umumiy tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, sohaning istiqbollari, jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'langan holda o'rgatishdir.

Kutubxonashunoslik fani talabalarning kasbga bo'lgan mehrni va layoqatni shakllantirish.

Shuningdek kasbiy tayyorgarlikni oshirib, mutaxassislarga ixtisosligidan malakalarini orttirib borish. Kutubxonashunoslik uslubiyoti va metodologiyasini shakllantirib borish.

Kutubxonashunoslik quyidagi fanlar bilan bog'liq:

- Tilshunoslik;
- Adabiyot va adabiyotshunoslik;
- Manbashunoslik;
- Matnshunoslik;
- Tarix va boshqa fanlar bilan bevosita bo'liq.
- Kompyuter savodxonlik;

Bu fanlar Kutubxonashunoslik fanining tarkibiy qismlari desak ham bo'ladi. bilan bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. "Kutubxonashunoslik" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr talabalar bilishi kerak amaliy va tajriba mashg'ulotlari orqali malakalar:

- maqsadi,
- vazifasi,
- tamoyillari,
- qonuniyatlari,
- metodologiyasini,
- metodlarini,

- kutubxonalar tipologiyasini bilishi kerak. Shuningdek, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda muomala madaniyatini puxta bilishi kerak. Kutubxona faoliyatiga oid bilim, ko'nikma va malakani egallashda e'tiborga olinadigan jihatlar:

- fanni bilishda zarur adabiyotlarni mustaqil o'rganish,
- fanni tahlil qilishda ilmiy adabiyotlar bilan ishlash,
- bilim, ko'nima va malakaga ega bo'lishi kerak,
- egallagan bilimlari asosida mustaqil fikrlash hamda reativ ijodkorlikni shakllantirish,
- muammolarning yechimini topishda bilim va tajribani qo'llay olishni yo'lga qo'yish.

- fanni o'zlashtirish natijasida hosil qilingan bilim va ko'nikmalaridan ilmiy-tadqiqot va malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda foydalana olishlari zarur. "Kutubxonashunoslik" fani ixtisoslik fan sifatida o'rganiladi. Bakalavr davrida o'quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar, mutaxassislik fanlari barcha fanlar bilan chambarchas bog'liq holda tushuntirilib boriladi. Fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'quv rejasiga ko'ra o'quv materialining mazmuni va pedagogik maqsadlariga qarab, ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar ko'rinishida olib boriladi. Fanlar bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlab borish uchun ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganadi.

Ma'ruza mashg'ulotidan egallagan bilimlarini seminar mashg'uloti va amaliy mashg'ulotida so'zlab beradi, amaliy darsda qo'llaydi. Har bir mashg'ulotlarning yuqori saviyada olib borilishi talabalarda o'ziga ishonch, ixtisoslik fanlarini puxta bilishni ta'minlaydi.

"Kutubxonashunoslik" fanini talab darajasida o'zlashtirish, talabalarda, Kutubxonashunoslik fani va kutubxona- axborot faoliyati sohasi bo'yicha asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Talabalar olgan bilim, ko'nikma va malakalarni kelgusida kutubxona-axborot muassasalari faoliyatida qo'llay bilishi kerak. Kutubxonashunoslik fanini o'zlashtirish chog'ida darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari va ularning elektron versiyalaridan va internet tizimidan foydalaniladi.

Fanni o'rganishda mashg'ulotlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- ma'ruza mashg'ulotlari,
- amaliy mashg'ulotlar,
- fan mazmuniga tegishli o'quv materiallarini mustaqil o'rganish.

O'quv fanini yaxshi o'zlashtirish uchun bir necha metodik usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- muammolar hosil qilish va unga yechimni topishni o'rgatish,
- guruhda ishlash tafakkur olamini kengaytib borish,

- individual topshiriqlar berish kabi xarakterli belgilarga tayyorlab borish. Informatsiyaga boy texnologiyalardan foydalanish talaba uchun kerak. Talabalarda amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi, amaliy mashg'ulot orqali olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashni yo'lga qo'yadi.

Topshiriqlarini va uy vazifalarini bajarishda elektron tizimdan foydalanishni yo'lga qo'yish. Ilmiy bazalardan texnik jihatdan keng foydalanishga e'tibor berishni o'rganish. O'quv fanlari talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirgani aniqlanib, kutubxonashunoslik faniga oid terminlar bilan seminar va amaliy mashg'ulotlarda chuqur mulohaza qilish. Ma'ruza mashg'ulotida oraliq nazoratlari semestr davomida ikki marta o'tkaziladi. Seminar yoki amaliy mashg'ulot orqali joriy nazorat olinadi. Shuningdek, yakuniy nazorat tadbirlarini o'tkazish orqali fanlar yopiladi.

Kutubxonashunoslik fanida quyidagi asosiy mavzular o'rganiladi:

- Kutubxonashunoslikning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini zamonaviy jihatdan o'rganish;

- Kutubxonashunoslik fanining bugungi kundagi holati, rivojlantirishda to'sqinlik ettayotgan muammolarni bartaraf etish;

- Kutubxonashunoslik faniga o'zaro aloqador fanlarni aniqlash;

- Fanning maqsadi va vazifalarini aniqlash;

- Kutubxonashunoslik fanining ilmiy fan ekanini hamda o'quv fani sifatida paydo bo'lishi qay darajada muhimligi bilan tanishish;

- Zamonaviy kutubxonashunoslik fanining tarkibiy qismlarini oydinlashtirish, mazmuni aniqlash va funksiyalarini o'rganish;

- Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi bilan tanishish va ilmiy usullaridan foydalanib amaliyotda qo'llash;

- Zamonaviy kutubxona-axborot faoliyatining O'zbekistondagi ijtimoiy funksiyalari bilan tanishib borish;

- Axborot-kutubxona muassasalarining asosiy tiplari va xillari o'rganish;

- Kutubxonachilik kasbiga mehrni orttirish malakalarni shakllantirish;

- Kutubxonachilik kasbiga oid ehtiyojlar haqida ma'lumot berish, kasbga qo'yiladigan talablarni tushuntirish;

- Kutubxona-axborot muassasalarining tashkiliy tuzilmalari bilan tanishtirish;

- O'zbekistonning taniqli kutubxonashunoslari faoliyati bilan tanishtirish;

- Kutubxonachilik oid baza ma'lumotlarini yaratuvchi kutubxonachi faoliyatini o'rgatish;

- Multimediya resurslarini (CD ,DVD) saqlash va boshqalarni tashkillashtirishni o'rgatish kabi sohaga oid bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish. Kutubxona faoliyatini boshqarish tizimini talabada namoyon qilish. Kutubxonada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish shuningdek, oxirgilari funksiyalarini o'rgatib borish. Jarayon kutubxona-axborot faoliyatining eng so'ngi texnikalaridan foydalanishni bilish.

O'zbekistonda axborot-kutubxona fanining rivojlanishi. "Kutubxonashunoslik" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi.

REFERENCES

1. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi:.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
2. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.- Toshkeht.: Tafakkur, 2011.-520 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "O'qituvchi", 1994.350 b.
5. NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS KO'RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI
SH Norqulovich - International conference on multidisciplinary science, 2023
Цитируется: 15 Похожие статьи
6. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN
H Suvanov - Modern Science and Research, 2024
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)
7. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir
HN Suvanov - Science and Education, 2023
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (2)
8. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI
S Husniddin - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)

9. MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO'LISHI
H Suvanov - NRJ, 2024
Цитируется: 4 Похожие статьи
10. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA SAIDOVA
H Suvanov - Modern Science and Research, 2023
Цитируется: 1 Похожие статьи Все версии статьи (2)
11. HUSNIDDIN SUVANOV CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" 2023/4/30. Страницы 50-53